



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2021 y. "22" *oktabr* № *41*

Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 3 - avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 - yil 11 - fevraldagi "2021 - yil uchun Davlat statistika ishlari dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 62-son qaroriga muvofiq, yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini shakllantirish uslubiyatini joriy qilish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu qaror 2021 - yil 1 - noyabrdan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizom davlat statistika organlari tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari va respublika hududlari kesimida yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakatini baholash uchun statistik maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan.

2. Mazkur Uslubiy nizom mehnat statistikasi hisobotlari asosida yig'iladigan ma'lumotlarga muvofiq yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

3. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakatining statistik o'lchovi ma'lum bir korxona yoki tashkilotda mehnat daftarchasi mavjud bo'lgan xodimlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi normative va qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro tavsiyalarga asoslangan holda olib boriladi.

II. Asosiy tushunchalar

4. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi - korxona yoki tashkilotlarda yoki ularning alohida bo'linmalarida ishlovchi mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan barcha xodimlar;

yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati – turli sabablarga ko'ra ishga qabul qilish va ishdan ketish tufayli xodimlar sonining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Hisobot davri uchun xodimlarning harakati balans shaklida taqdim etilishi mumkin, ya'ni hisobot davrining boshidagi xodimlar soniga hisobot davrida qabul qilinganlar sonini qo'shish va hisobot davrida ishdan ketganlar sonini ayirish natijasi hisobot davri oxiridagi xodimlar soniga teng bo'ladi;

xodimlarning o'rtacha soni – yil boshidan hisobot oyigacha bo'lgan davr mobaynida o'tgan barcha oylar uchun xodimlarning o'rtacha oylik sonini jamlash va yig'indini yil boshidan jami oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

III. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi ko'rsatkichlarni shakllantirishning uslubiy asoslari

5. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlari korxona va tashkilotlardagi ishga qabul qilingan va ishdan ketgan xodimlarni o'z ichiga oladi.

6. Qabul qilingan xodimlar hisobot davrida ushbu korxona yoki tashkilotga buyruq bilan ishga qabul qilinganlar bo'yicha aniqlanadi.

7. Ishga qabul qilingan xodimlar soni quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

davlat tashkilotlari tomonidan maxsus shartnomalar asosida ishga yollangan xodimlar (harbiy xizmatchilar va ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslar);

tashqi o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar;

fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlar.

8. Ishdan bo'shagan xodimlar ushbu tashkilotda ishdan bo'shashining sabablaridan (xodimning yoki ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi, shtatlar qisqarishi, tomonlarning kelishuvi, harbiy xizmatga chaqiruv yoki qabul qilinishi, buyruq bilan rasmiylashtirilgan, xodimni o'z roziligi bilan boshqa tashkilotga o'tkazilishi yoki tanlangan lavozimga o'tishi, uni tark etishi yoki o'tkazilishi, shuningdek, o'lim bilan bog'liq holda ishdan bo'shashi) qat'iy nazar hisobga olinadi.

9. O'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shagan xodimlar soniga korxona yoki tashkilotdan xodimning o'z tashabbusi bilan, shuningdek, quyidagi holatlar sababli chiqib ketgan xodimlar kiritiladi:

boshqa hududga yoki chet elga ko'chib o'tish;

kasallik yoki nogironlik, sog'ligi sababli ishlashni davom ettira olmaslik;

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim muassasasiga qabul qilinishi;

pensiya yoshiga yetganligi sababli;

kasal oila a'zolari yoki nogironlarga g'amxo'rlik qilish zarurati sababli;

tomonlarning kelishuviga muvofiq.

IV. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish tartibi

10. Ma'lumotlar yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari tomonidan elektron shaklda taqdim etilgan 1-mehnat shakli "Mehnat hisoboti", 1-kb shakli "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti", 1-ntt shakli "Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot", 1-kom (kvartira) shakli "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida hisobot" shakllari asosida yagona metodologiyaga muvofiq yillik davriylikda Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi hamda tegishli tarmoq boshqarmalari tomonidan yig'iladi, umumlashtiriladi, qayta ishlanadi va tahlil qilinib, iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar bo'yicha mazkur uslubiy nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxema asosida ishlab chiqiladi.

11. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish ishlari Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda, statistik to'plamlar tayyorlash va ma'lumotlarni nashr etish tasdiqlangan grafik asosida amalga oshiriladi.

V. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini hisoblash

12. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi mavjud statistik ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1) ishga qabul qilish aylanmasi (P) – o'rganilayotgan davrda ishga qabul qilingan xodimlar soni;

2) ishdan bo'shash aylanmasi (W) – barcha sabablarga ko'ra o'rganilayotgan davr mobaynida ishdan bo'shagan xodimlar soni.

13. Nisbiy ko'rsatkichlar ishchi kuchi harakatining intensivlik darajasini tavsiflaydi. Ishchi kuchi harakati to'g'risidagi mavjud statistik ma'lumotlar asosida quyidagi nisbiy ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1) ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti (k_P) ko'rsatkichi – ma'lum bir davrdagi ishga qabul qilish aylanmasini (P) o'sha davrdagi xodimlarning o'rtacha soniga ($\bar{T}$) nisbati sifatida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$k_P = \frac{P}{\bar{T}} * 100\%;$$

2) ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyenti (k_W) ko'rsatkichi – ma'lum bir davrdagi ishdan bo'shash aylanmasini (W) o'sha davrdagi xodimlarning o'rtacha soniga ($\bar{T}$) nisbati sifatida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$k_W = \frac{W}{T} * 100\%.$$

14. Ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti (k_P) va ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyenti (k_W) ko'rsatkichlari mazkur uslubiy nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan shartli misolga muvofiq hisoblanadi.

VI. Yakuniy qoidalar

15. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakatini kuzatish iqtisodiy faoliyat turlari va respublika hududlari bo'yicha xodimlarni ishga qabul qilinishi va ishdan bo'shashi, nisbiy koeffitsiyentlar orqali ishchi kuchi harakatining intensivligi va xodimlarga bo'lgan talab haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

16. Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar davriy nashrlar orqali e'lon qilinadi.

Shuningdek, foydalanuvchilarga xodimlar harakati to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari asosida ham taqdim etilishi mumkin.

17. Xodimlarning ishga qabul qilinishi va ishdan bo'shatilishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq tartibga solinadi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 21.12.1995 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-642, 20.10.2020 yil.
3. Tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining o'rtacha yillik sonini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom, Adliya vazirligi tomonidan 17.02.2017 yilda 2858-son bilan ro'yxatga olingan, Davlat statistika qo'mitasining 17.01.2017 yildagi 1-MB-sonli va Mehnat vazirligining 3-k/q-sonli qaroriga ilova.
4. Методологические разработки Росстата, 3.1. Методология статистического наблюдения за численностью работников, заработной платой и использованием рабочего времени, раздел «Движение работников»: https://gks.ru/bgd/free/meta_2010/IssWWW.exe/Stg/d2003/i030030r.htm
5. Национальный статистический комитет Республики Беларусь, Методологические положения по статистике, Статистика труда, Статистика занятости: <https://www.belstat.gov.by/metodologiya/metodologicheskie-polozeniya-po-statistike/>.

Yuridik shaxslarda ishlovchi
ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini
shakllantirish bo'yicha uslubiy
nizomga
1-ilova

**Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini
shakllantirish sxemasi**

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
I-bosqich	Yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari	Yillik davriylikda 1-mehnat shakli "Mehnat hisoboti", 1-kb "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti", 1-nnt "Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot", 1-kom (kvartira) shakli "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to'g'risida hisobot" shakllarini elektron shaklda taqdim etish.	1 fevraldan 26 martgacha
II-bosqich	Davlat statistika qo'mitasining tegishli tarmoq boshqarmalari	Xodimlar harakati to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish.	fevral - may
III-bosqich	Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi	Xodimlar harakati to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlarni iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar bo'yicha shakllantirish	iyun
	Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi	Xodimlar harakati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar bo'yicha tahlil qilish	iyul
IV-bosqich	Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi	Xodimlar harakati to'g'risida statistik to'plamlar tayyorlash va ma'lumotlarni nashr etish	tasdiqlangan grafik bo'yicha

Yuridik shaxslarda ishlovchi ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha shartli misol

Respublika bo'yicha "Sanoat" iqtisodiy faoliyat turida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni 1 yanvar holatiga 837,6 ming kishini tashkil etgan. Yil davomida 130,2 ming nafar xodim ishga qabul qilingan va 115,4 ming nafar xodim ishdan bo'shagan. Hisobot davri oxiriga kelib tarmoqda 852,4 ming kishi ishlagan. Xodimlarning yillik o'rtacha soni 845,0 ming kishini tashkil etgan.

1. Ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyentini (k_p) hisoblaymiz:

$$k_p = \frac{P}{T} * 100 = \frac{130,2}{845,0} * 100 = 15,4\%$$

2. Ishdan bo'shash aylanmasi koeffitsiyentini (k_w) hisoblaymiz:

$$k_w = \frac{W}{T} * 100 = \frac{115,4}{845,0} * 100 = 13,7\%$$